

**KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA XORIJIY TILNI  
O'RGATISHNING INNAVATSION USULLARI**

***Zuxra Shodmonova***

*Samarqand davlat chet tillari 2- kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishning intensiv usullari, ta'lim muassasalarida xorijiy tilni kichik yoshdagi bolalarga innovatsion usullarda n foydalanish haqida malumotlar berilgan. Xususan ingliz tilini o'rgatishda zamonaviy bir qancha metod va uslublardan pedagogning asossiy vazifalaridan biridir.

**Kalit so'zlar:** xorijiy til, metod, zamonaviy metodlar, innovatsion usullar.

**INNOVATIVE METHODS OF TEACHING A FOREIGN  
LANGUAGE TO YOUNG CHILDREN**

**Abstract:** This article provides information about the intensive methods of teaching English in educational institutions, the use of a foreign language in educational institutions for young children in innovative ways. In particular, it is one of the basic tasks of a pedagogue among several modern methods and styles in teaching English.

**Key words:** foreign language, method, modern methods, innovative methods.

Vatanimiz mustaqillikga erishgandan so'ng mamalakatimizda chet tillarini o'rgatishga bo'lgan etibor kuchaytirildi. Buning sababi bor albatta, iqtisodiy fan va madaniyat jihatdan rivojlangan davlatlarning tillarini o'rganish jahon ilm fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omilidir. Til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq hisoblanadi. Psixologlarning fikricha bolalar kattalarga nisbatan tez va oson o'zlashtiradilar hamda til o'rganish qancha erta boshlansa shuncha til o'rganish ko'nikmasini egallash osonlashadi. O'quvchilarga til majburiyat sifatida

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

emas aksincha qiziqarli o'yinlar va innovatsion usullardan foydalangan holda ularni kelajakdagi bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi kerak. Chet tilini o'rgatishning uchun erta yoshni afzal ko'rishning yana bir sababi bola qanchalik kichik bo'lsa shunchalik mahalliy tilda lugat ham kichik bo'ladi. lekin ayni paytta uning nutqqa bo'lgan ehtiyoji kamroq bo'ladi. Talim tizimi tarmogini yanada kengaytirish bolalarni o'qitishning zamonaviy hamda samarali metodlardan foydalinish va mактабгача ta'lim muassalarini makali kadrlar bilan ta'minlash bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashz arur. Shu jumladan zamonaviy pedagogikaning vazifasi bola rivojlanishining barcha sohalariga uyg'un tasir qiladigan murakkab va noyob bolmagan usullarni izlash va yaratishdan iborat. Bu bir necha samarali usullardan foydalanim dars o'tishni talab qiladi. Quyida ana shu usullarni ko'rib chiqamiz.

Kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va masulyatli. Ularga tilini o'rgatishning hech qachon grammatik tushuncha berishdan boshlamasklik kerak. Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalinish mumkin.

— mavzuga oid muhit yaratish. O'qituvchi mavzuga mos bo'lgan muhitni yarata olsa bolalar tilni yaxshi o'rganishadi. Masalan travelling cooking doing sports kitchen kabi mavzularga. Travel mavzusida o"qituvchi qayergadir sayohat uyushtirishi qayergadir borib o'sha joyga talluqli so'zlarni o'rgatishi yoki oshxona mavzusida oshxona jihozlarini, idishlarini olib kelib oshxona muhitini yaratib dars o'tsa bu bolaning ham so'z boyligini ham dunyoqarashini kengaytiradi.

— multfilmlar. Bolalar tilni o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada qahramonlarning so'zlarini harakati orqali tushunishga intiladi. Bu bolalarda til o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttiradi.

— qo'shiq va sherlar orqali tushuntirish, aytilishi yoki esda qolishi qiyin bolgan sozlarni harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish ham juda samarali usullardan biri.

— ko'rgazmali qurollar . Ko'zga korinadigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsa buyumlarga yozish. Masalan eshik oyna stol doska kabilarga

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

sozlarni yozib yopishtirib qoyish,yoki kichik qog'oz bolaklariga yopishtirish , bunday narsa buyumlar ko'zga ko'rinish turganligi tufayli so'zlarni bolalar bolalar ixtiyorsiz tarzda o'rganadi.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas aksincha qiziqarli mashgulot tarzida olib borilishi bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bolalarga chet tilini o'rganish qanchalik muhimligini ularga tabiiy sharoitlar orqali tushuntirib borish darkor. Bunda ularning chet tilini bilish ko'nikmalarini oshirishda zamonaviy metod va yondashuvlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Zimnyaya I.A Psychology of teaching foreign at school. 1991-219-p
2. Rozikova Z. T. Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini oqitish metodlari.
3. Yo'ldasheva. D. A.Kichik yoshdagi bolalarga ingliz to'rgarishning innavatsion usullari. 2017-138-p
4. Sapayeva. O'. B Maktablarda ingliz tili fanini o'qitishda intensive usullar. 2023-564-p
5. Astafidiyeva. M. D. Ingliz tilini o'rganayotgan bolalar uchun tatal. 2009.
6. Zubaydova Nilufar Nematillaeva , Learning English with phrases 2019
7. Zubaydova Nilufar Nematillaeva, The importance of teaching vocabulary 2019
- 8.Zubaydova Nilufar Nigmatullaeva. The Teaching English for specific purposes. 2019